

ANTIK DAVR ADABIYOTI VA FOLKLORE

*Mardonova Madina Ikromovna,**Toshkent amaliy fanlar universiteti**O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi**4-bosqich talabasi*

Annotatsiya. **Mazkur maqola antik davr adabiyoti va folklorining o‘zaro munosabati, ularning insoniyat madaniyatidagi o‘rni va ta’sirini tahlil qiladi.** Antik davr adabiyoti – qadimgi Yunoniston va Rim yozma merosining durdonalari orqali shakllangan bo‘lsa, folklor esa xalqning og‘zaki ijodini ifodalaydi. Bu ikki manbaning uyg‘unlashuvi orqali insoniyatning ilk tafakkuri, estetik qarashlari va falsafasi yuzaga chiqqan. Maqolada Homeros, Vergiliy, Sofokl, Ovidiy kabi mualliflarning asarlaridagi folklor motivlari, mifologik timsollar, dostonlar va dramatik janrlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Antik davr, adabiyot, folklor, mifologiya, qadimgi yunon adabiyoti, Rim adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi, tragediya, epik asar, madaniyat, yunon miflari, mif, og‘zaki meros, klassik asarlar

Аннотация. В данной статье анализируется взаимосвязь литературы и фольклора античности, их место и влияние в культуре человечества. В то время как литература античности формировалась через шедевры письменного наследия Древней Греции и Рима, фольклор представляет собой устное творчество народа. Благодаря слиянию этих двух источников возникли ранняя человеческая мысль, эстетические взгляды и философия. В данной статье анализируется взаимосвязь литературы и фольклора античности, их место и влияние в культуре человечества. В то время как литература античности формировалась через шедевры письменного наследия Древней Греции и Рима, фольклор представляет собой устное творчество народа. Благодаря слиянию этих двух источников возникли ранняя человеческая мысль, эстетические взгляды и философия. В статье анализируются фольклорные мотивы,

мифологические образы, былины и драматические жанры в произведениях таких авторов, как Гомер, Вергилий, Софокл, Овидий.

Ключевые слова. Античность, литература, фольклор, мифология, древнегреческая литература, римская литература, устное народное творчество, трагедия, эпическое произведение, культура, греческие мифы, Миф, устное наследие, классические произведения.

Annotation. This article analyzes the relationship of the literature and folklore of antiquity, their place and influence in the culture of mankind. Ancient literature-formed through the masterpieces of the written heritage of Ancient Greece and Rome, while folklore represents the oral creativity of the people. Through the harmonization of these two sources, the first thought, aesthetic views and philosophy of mankind came to the surface. This article analyzes the relationship of the literature and folklore of antiquity, their place and influence in the culture of mankind. Ancient literature-formed through the masterpieces of the written heritage of Ancient Greece and Rome, while folklore represents the oral creativity of the people. Through the harmonization of these two sources, the first thought, aesthetic views and philosophy of mankind came to the surface. The article analyzes folklore motifs, mythological icons, epics and dramatic genres in the works of authors such as Homeros, Vergilius, Sophocles, Ovid.

Keywords. Antiquity, literature, folklore, mythology, ancient Greek literature, Roman literature, folk oral fiction, tragedy, epic work, culture, Greek myths, myth, oral heritage, classical works.

Insoniyat tarixida madaniyat va adabiyotning shakllanishi uzoq tarixiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Antik davr esa bu rivojlanishning eng yuksak va muhim bosqichlaridan biridir. Qadimgi Yunoniston va Rimda yuzaga kelgan adabiy asarlar bugungi kunda ham dunyo madaniyati va adabiy tafakkurining asosiy negizlaridan biri sifatida qaraladi. Shu bilan birga, bu asarlar faqat yozma ijod mahsuli bo‘lib qolmasdan, o‘z zamonasining boy folklor merosiga ham tayanadi.

Xalq og‘zaki ijodi, ayniqsa mifologik rivoyatlar, qahramonlik dostonlari, afsonalar, maqollar va topishmoqlar shaklida antik yozma adabiyotda chuqur iz qoldirgan. Ushbu maqolada biz antik davr adabiyotining folklor bilan aloqasi, ularning o‘zaro ta’siri va umumiy madaniy kontekstdagi o‘rnini chuqurroq o‘rganish dolzARB masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyot insoniyat tafakkurining yuksak mahsuli hisoblanadi. Uning ildizlari insoniyat tarixining eng qadimgi bosqichlarida, og‘zaki ijod shaklida vujudga kelgan. Ayniqsa, antik davr adabiyoti va folklori bugungi zamонавиy madaniyat va adabiyot uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu davrda xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot o‘zaro uyg‘unlashgan, mifologik hikoyalar, dostonlar, she’riy va dramatik asarlar orqali insoniyat tafakkuri, estetik qarashlari va axloqiy me’yorlari ifoda etilgan.

Antik adabiyot deganda, miloddan avvalgi VIII asrdan boshlab milodiy V asrgacha bo‘lgan davrda, asosan Yunoniston va Rim hududlarida yaratilgan adabiy asarlar tushuniladi. Bu adabiyot ko‘plab janrlar: epik dostonlar, tragediyalar, komediyalar, falsafiy dialoglar, tarixiy asarlar va lirik she’riyat orqali ifoda topgan. Antik davr adabiyoti asosan qadimgi Yunoniston va Rimga tegishli bo‘lib, miloddan avvalgi VIII asrdan boshlab milodiy V asrgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi.

Bu davr adabiyotining eng yorqin namoyandalari, Homer – uning “Iliada” va “Odisseya” epik dostonlari qadimgi yunon xalqining tarixiy xotirasi va mifologik qarashlarini mujassamlashtiradi. Hesiod – “Ish va kunlar”, “Ilohiyot” kabi asarlari orqali mehnat, axloqiy qadriyatlar va olamning paydo bo‘lishi haqida fikr yuritadi. Sofokl, Evripid, Aysxil – yunon tragediyasining asoschilaridir. Aristofan – komediya janrida yozilgan asarlari bilan mashhur.

Vergiliy, Goras, Ovidiy – Rim adabiyotining yirik vakillari bo‘lib, epik va lirik janrlarni rivojlantirishgan. Homeros (M.A. VIII asr): “Iliada” va “Odisseya” eposlari – yunon xalqining qahramonlik eposi va mifologiyasi asosida yaratilgan.

Hesiod (M.A. VII asr): “Ilohiyot” (Theogoniya) – olamning yaratilishi va xudolar nasl-nasabini hikoya qiladi. Sofokl, Evripid, Aysxil – yunon tragediyasining asoschilari, mifologik voqealarni dramatik shaklda tasvirlashgan.

Aristofan – komediya janrida asarlar yozgan, ijtimoiy tanqidchi sifatida ham tanilgan. Rim adabiyoti vakillarini ko‘rib chiqamiz.

Vergiliy – “Eneida” dostoni orqali Rim xalqining mifologik kelib chiqishini yoritadi. Goratsiy – lirik she’riyatning yirik namoyandasi. Ovidiy – “Metamorfozlar” asarida yuzlab yunon va rim afsonalarini she’riy shaklda bayon qiladi.

Folklor – bu xalqning og‘zaki ijodiy merosi bo‘lib, tarixiy tafakkur, diniy qarashlar, axloqiy qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy hayotning in’ikosi sifatida namoyon bo‘ladi.

Antik davr folklori Miflar va afsonalar, Qahramonlik dostonlari, Marosim qo‘sishqlari (epitalama, elegiya), Topishmoq, maqol va masallar ko‘rinishlarda ifodalangan.

Folklor asosan og‘zaki shaklda avloddan-avlodga o‘tgan bo‘lib, yozma adabiyot shakllanayotgan davrda u asosiy ilhom manbai sifatida xizmat qilgan.

Antik adabiyotda folklor elementlari juda keng uchraydi. Masalan:

Miflar – Yunon va Rim mifologiyasi antik asarlarning asosiy mavzusi bo‘lib xizmat qilgan. Masalan, Troya urushi, Odissey sayohati, Herkulning jasoratlari – barchasi xalq og‘zaki ijodi asosida yaratilgan.

Afsonalar va ertaklar – ko‘plab dramatik va epik asarlarda afsonaviy qahramonlar orqali axloqiy g‘oyalari ilgari surilgan. Qahramonlik dostoni – epik janrda yaratilgan asarlar, masalan, “Iliada”, “Eneida”, xalq og‘zaki dostonlariga juda yaqin tuzilgan. Bu jihatlar antik adabiyotning folklor ildizlariga chuqur bog‘liqligini isbotlaydi.

Folklor va yozma adabiyotning o‘zaro ta’sirini keltirib o tamiz.

Homerosning “Iliada” va “Odisseya” eposlari xalq orasida og‘zaki tarzda tarqalgan urush va qahramonlik haqidagi hikoyalar asosida yozilgan. Bu asarlar o‘zbek xalq dostoni “Alpomish”ga o‘xshash folkloriy qahramonlik an’analarini aks ettiradi.

Homeros (miloddan avvalgi VIII asr) — qadimgi Yunonistonning eng mashhur epik shoiri bo‘lib, "Iliada" va "Odisseya" kabi ikki ulkan epos muallifi hisoblanadi. U haqida tarixiy ma’lumotlar juda kam, hatto uning haqiqatan mavjud bo‘lganligi yoki bu asarlar og‘zaki ijod mahsuli bo‘lib, keyinchalik Homeros nomi bilan birlashtirilgani borasida ham tarixchilar va adabiyotshunoslar o‘rtasida bahslar bor.

Shunga qaramay, Homeros asarlari butun Yevropa adabiyotining boshlanish nuqtasi, yunon xalqi madaniyatining asosi va umuminsoniy merosning muhim qismidir.

Miloddan avvalgi 8-asrda "Iliada" eposi yaratilganligi adabiy manbalarda keltirilgan bo‘lib, unda Troya urushi voqealari keltirilgan bo‘lib, uning jami hajmi 24 qo‘sishidan iborat (~15 000 misra).

“Iliada” eposida Troya urushining oxirgi 51 kuni tasvirlanadi. Markaziy qahramon — Axilles (Axilles) bo‘lib, uning g‘azabi va natijasi asar markazida turadi. Eposda yunonlar (axeylar) va troyaliklar o‘rtasidagi urush, qahramonlik, o‘lim, do‘stlik, g‘azab, shon-shuhrat va fofia motivlari ustuvor bo‘lib, uning asosiy qahramonlarini keltiramiz. Axilles – yunonlarning eng kuchli qahramoni, Poseydon avlodи. Agamemnon – yunon lashkarlari boshlig‘i, Hektor – Troya shahzodasi, mudofaaning ramzi, Priam – Troya podshosi, Patrokl – Axillesning yaqin do‘sti, Odysseus – aqli va dono qahramon, “Odisseya” eposining bosh qahramoni, Helen – yunon-qiz Troya sababchisi, eng go‘zal ayol, Xudolar – Zevs, Afrodita, Ares, Afina va boshqalar doimiy aralashib turadi.

Asardagi asosiy g‘oyalar, qahramonlik va jasorat, g‘azab va kechirim, taqdir va xudolarning ta’siri, shon-shuhrat va abadiylik istagi, urushning fofiali mohiyatlaridan iborat.

M.A. 8-asr oxiri (Iliadadan keyin) "Odisseya" eposi yatarilgan bo‘lib, Qahramonning vatanga qaytish sarguzashtlari asosiy mavzu hisoblanadi va 24 qo‘sish (12 000 misra)dan iborat.

“Odisseya” eposi Troya urushidan keyin Odysseusning Itaka oroliga qaytish yo‘lida 10 yil davomida boshidan kechirgan sarguzashtlari haqida. Bu asarda faqat

urush emas, aqlli strategiya, sabr-toqat, aql-zakovat va sadoqat kabi tushunchalar markazda turadi.

Sikloplar (bir ko‘zli mahluq) bilan jang, Sehrgar Kirka orolida bo‘lishi, Dengiz ilohlari va afsonaviy mavjudotlar bilan to‘qnashuv, Nimoqobil xotinlar bilan kurashish, Odisseyning Penelopa va o‘g‘li Telemak bilan uchrashuvi asosy voqealar hisoblanadi. Aql-zakovat va farosat kuchi, sabr va sadoqat, sarguzasht va qiyinchilik orqali yetuklikka erishish, vatanni sog‘inish va uyga qaytish g‘oyasi asosiy g‘oyalar hisoblanadi.

Ikkala epos ham o‘z zamonasining boy og‘zaki ijod(folklor) an’analariiga tayanadi. Qahramonlik dostonlari – xalq orasida og‘zaki tarzda aytilgan qahramonlik hikoyalari asosida yozilgan. Mifologik syujetlar – xudolar, sehrgarlar, mahluqlar, jodu, taqdir va bashoratlар miflardan olingan. Qayta-qayta takrorlanadigan epitetlar – masalan, “oy yuzli Penelopa”, “tezoyoq Axilles” — og‘zaki rivoyat uslubining belgilari.

Homeros asarlari folklor bilan adabiyot o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini o‘taydi. Asarlarning dunyo madaniyatiga ta’sirini ko‘rib chiqamiz.

Homeros eoslari butun dunyo adabiyoti, san’ati, falsafasi va hatto siyosiy tafakkuriga ta’sir ko‘rsatgan. Shakespeare tragediyalarida yunon mifologiyasidan keng foydalangan. Dantening “Illohiy komediya” asari “Odisseya”dan ilhom olgan. Jeyms Joysning “Ulis” (Ulysses) romani — “Odisseya” eposining zamonaviy interpretatsiyasi. Zamonaviy kinofilmlar, teatr, musiqa va video o‘yinlar Homeros motivlarini keng qo‘llaydi.

Homerosning “Iliada” va “Odisseya” eoslari — bu insoniyat tafakkuri, estetik qarashlari va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarining eng qadimgi yozma yodgorliklaridir. Bu asarlar nafaqat qahramonlik, sarguzasht, jasorat haqida, balki inson, jamiyat, taqdir va qadriyatlar haqidagi chuqur falsafiy fikrlarni o‘zida jamlagan. Ular orqali xalq og‘zaki ijodi yozma adabiyot darajasiga ko‘tarilgan, shuningdek, butun G‘arb va Sharq madaniyatiga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Hesiodning “Ilohiyot” asari esa xalq orasida mavjud bo‘lgan kosmogonik miflarni sistemalashtirib, xudolarning genealogiyasini yozma shaklga keltirgan.

Hesiod — miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda yashagan qadimgi yunon shoiri. U qadimgi yunon adabiyotining eng muhim namoyandalaridan biri hisoblanadi. Hesiod Homeros bilan bir davrda yashagan va u bilan birga yunon yozma adabiyotining asoschilaridan sanaladi.

Hesiodning asosiy asarlari miloddan avvalgi 807-asrlarda yaratilgan. “Ish va kunlar” (Erga kai Hemera) – mehnat, axloq, inson hayoti haqida. “Ilohiyot” (Theogoniya) – xudolar nasl-nasabi va olamning paydo bo‘lishi haqida. “Theogoniya” (yunoncha: *theos* – “xudo”, *gonia* – “tug‘ilish”) Ya’ni – “Xudolar nasli”, “Xudolar shajarasi”.

Hesiodning “Ilohiyot” asari — butun yunon mifologiyasi va diniy qarashlarining dastlabki tizimli bayoni hisoblanadi. Bu asarda Hesiod koinotning paydo bo‘lishi, xudolarning kelib chiqishi, ularning o‘zaro qarindoshligi va kurashlari haqida so‘z yuritadi.

Hesiodning “Ilohiyot” asari qadimgi yunon dunyoqarashi, mifologiyasi va diniy qarashlarini tizimli shaklda ifoda etgan ilk manba hisoblanadi. U orqali biz qadimgi insoniyat tafakkurining eng muhim unsurlari — olam tuzilishi, xudolar shajarasi, yaxshilik va yomonlik, insoniyat kelib chiqishi, ilohiy kuchlar haqidagi qarashlar bilan tanishamiz. Bu asar Homeros eposlari bilan bir qatorda, butun G‘arb adabiyotining poydevorlaridan biridir.

Sofoklning “Edip” fojiasi, Evripidning “Medea” tragediyasi – barchasi xalq orasida mashhur bo‘lgan mifologik syujetlar asosida yaratilgan. Dramatik asarlar orqali bu rivoyatlar falsafiy va axloqiy darajaga ko‘tarilgan.

Sofokl va uning "Edip fojiasi" — Yunon tragediyasining eng yuksak namunasi hisoblanadi.

Sofokl (M.A. 497–406) — qadimgi Yunonistonning eng mashhur tragediya yozuvchisi bo‘lib, Aysxil va Evripid bilan birga yunon dramaturgiyasining uch ulkan ustunidan biri sanaladi. Sofokl hayoti davomida 120 dan ortiq tragediya yozgan,

ulardan faqat 7 tasi to‘liq saqlanib qolgan. “Edip podshoh”, “Antigona”, “Elektra”, “Edip Kolonda” eng mashhur asarlaridan hisoblanadi.

Sofokl yunon tragediyasini yangi bosqichga olib chiqdi, murakkab syujet, psixologik tahlil, dramatik keskinlik va axloqiy-falsafiy masalalarini chuqur o‘rganish uning asarlariga xosdir.

“Edip podshoh” tragediyasi Theba shahri podshohi Edipning fojiaviy taqdirini hikoya qiladi. Asar dramatik kuch va psixologik ziddiyatlar bilan boyitilgan.

Asardagi asosiy obrazlar

Obraz	Tavsif
Edip	Theba podshohi. Aql-zakovatli, odil, ammo taqdir oldida ojiz. Qahramonlik va fojiaviy inqiroz timsoli.
Iokasta	Edipning onasi va rafiqasi. Haqiqat yuzaga chiqqach, o‘z joniga qasd qiladi.
Lai	Edipning otasi, sobiq podsho. O‘z taqdiridan qochmoqchi bo‘ladi, lekin o‘z o‘limiga sababchi bo‘ladi.
Teiresiy	Ko‘r folbin. Haqiqatni biladi, ammo Edip uni avvaliga inkor qiladi.
Kreon	Iokastaning ukasi, siyosiy hokimiyat vakili. Keyinchalik Edip o‘rniga podsho bo‘ladi.

Asar orqali yunon tragik qarashlari yoritiladi: odam o‘z irodasiga ega bo‘lishi mumkin, lekin taqdir (moira) baribir hukmron. Edip o‘z taqdiridan qochishga urinsada, aynan shu harakatlari uni halokatga olib keladi.

Edip butunlay haqiqatni bilishga intiladi, lekin haqiqat u kutganidek emas. Bu haqiqat uning hayotini barbob qiladi. Bu orqali Sofokl: “Inson uchun haqiqat har doim ham baxt olib kelmaydi” degan falsafiy xulosani beradi.

Edip gunoh qilganini bilmagan, lekin baribir jazoga duchor bo‘ladi. Bu orqali qadim yunon axloqiy tushunchalari — “bilmasdan qilingan gunoh ham javobgarlikni keltiradi” degan g‘oya ilgari suriladi.

Asarda ko‘r folbin Teiresiy haqiqatni ko‘radi, lekin Edip ko‘ra turib hech narsani tushunmaydi. Asar oxirida Edip o‘z ko‘zlarini o‘yib tashlaydi – endi u haqiqatni ichki nigoh bilan ko‘radi. Bu ramziy va psixologik jihatdan kuchli san’atiy yechimdir.

Yunon tragediyasi sifatidagi xususiyatlar

Tragediya unsuri	“Edip”dagi ifodasi
Fojeaviy qahramon	Edip — o‘z xatosi va taqdiriy la’nati tufayli halokatga uchraydi.
Hamartiya (xato)	Edip o‘zini ilohiy kuchlardan ustun deb o‘ylaydi.
Katarsis (tozalanuv)	Tomoshabin Edip holatiga achinadi, unga hamdardlik bildiradi, axloqiy tozalanadi.
Xudolar aralashuvi	Taqdir oldindan belgilangan. Inson xohishidan qat’i nazar u sodir bo‘ladi.

Sofoklning “Edip podshoh” tragediyasi — bu inson va taqdir, aql va ko‘rlik, gunoh va poklanish haqidagi abadiy asar. U qadimgi yunon falsafasi va axloqiy qarashlarini mujassamlashtiribgina qolmay, har bir davr kishisini o‘ylantiradigan falsafiy, psixologik va axloqiy muammolarni ilgari suradi. Ushbu asar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

“Medea” tragediyasi — qadimgi adabiyotdagi eng kuchli ayol obrazlaridan biri, inson ruhiyatining tub-tubida yotgan hissiyotlar va fojiali ziddiyatlarning ifodasıdır. Evripid bu asar orqali Ayollar taqdiriga yangi nazar bilan qaraganligi, ruhiy holatlarni sahnada jonli aks ettirganligi, intiqom, xiyonat, mehr va nafrat o‘rtasidagi murakkab chiziqni yoritgan.

Bu tragediya nafaqat qadimgi davr, balki bugungi zamон jamiyati, gender rollari, insoniy qarorlar va axloqiy tanlovlар uchun ham muhim falsafiy manba bo‘lib qolmoqda.

Ezopning masallari xalq donishmandligining timsoli sifatida qadrlanadi. Ular og‘zaki tarzda yaratilgan bo‘lib, Ovidiy, Fedr kabi mualliflar tomonidan yozma shaklga o‘tkazilgan.

Ezop — qadimgi Yunonistonning mashhur afsonaviy hikoyachisi va masal yozuvchisi. Taxminlarga ko‘ra, u eramizdan oldingi VI asrda yashagan. Ezop haqida tarixiy ma’lumotlar kam, uning hayoti va shaxsiyati ko‘plab rivoyatlarga aylangan.

U, afsonalarga ko‘ra, qul sifatida yashagan, ammo juda dono va donolik sohibi bo‘lgan. Uning nomi bilan bog‘liq ko‘plab qissa va masallar keyinchalik yozma adabiyotning bir qismiga aylangan.

Masal — qisqa, oddiy uslubda yozilgan badiiy hikoya bo‘lib, odatda hayvonlar qahramon sifatida chiqadi va ularning harakatlari orqali insoniy fazilatlar, ijtimoiy axloq yoki hayot saboqlari yoritiladi.

Ezop masallari axloqiy saboq beradi, insoniy fazilatlar — do‘stlik, halollik, donolik, fidoyilik, balandparvozlik, rashk, yolg‘onchilik kabi his-tuyg‘ularni tahlil qiladi, oddiy, lekin chuqur falsafiy mazmunga ega.

Ezop masallarining asosiy xususiyatlari ko‘rib chiqamiz.

1. Qisqa va aniq shakl — masallar oddiy va qisqa bo‘lib, oson yodda qoladi.
2. Hayvonlar va tabiat belgilaridan foydalanish — qahramonlar sifatida hayvonlar yoki tabiiy obyektlar (qushlar, hayvonlar, o‘simliklar) ishlataladi.
3. Axloqiy darslar — har bir masal oxirida oddiy, ammo chuqur axloqiy saboq mavjud.
4. Inson tabiatining teran tahlili — yomonlik va yaxshilik, aqli va dono bo‘lish kabi mavzular ko‘tariladi.
5. Uzluksiz ommaboplrik — Ezop masallari ko‘plab tillarga tarjima qilingan, zamon va hududlardan qat’i nazar ahamiyatini yo‘qotmagan.

Ezop masallari yillar davomida xalq og‘zaki ijodi va adabiyotining ajralmas qismi bo‘lib kelgan.

Ular bolalarga tarbiya berish, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda keng qo‘llaniladi. Masallar ko‘plab til va madaniyatlarda tarjima qilingan, ularning asosiy mavzulari universaldir. Zamonaviy adabiyotda va pedagogikada masallar o‘rni muhim, ularning ta’siri film, teatr, multfilm va san’atga ham yetib borgan.

Ezop masallari — oddiy so‘zlar bilan aytilgan, lekin chuqur insoniy haqiqatlarni ifoda etadigan adabiy janrdir. Ular odamlarning axloqiy tarbiyasida, jamiyat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masallar har bir davr va yosh uchun o‘zining dolzARB saboqlarini beradi, shuning uchun ham ular bugungi kunda ham qadrlanadi.

Antik davr folklorida qahramonlik, fidoyilik, mehnat, sabr-toqat,adolat va haqiqatga intilish asosiy g‘oyalarni tashkil etgan. Bu qadriyatlar epik dostonlarda o‘z ifodasini topgan. Masalan, Axilles – kuch va shijoat timsoli, Odissey – aql va sabrning timsoli, Herakl – jasorat va sinovlar orqali yuksalish timsoli xalq hayoti va orzularining obrazli ifodasi bo‘lib xizmat qilgan.

Antik folklor va adabiyot motivlari o‘zbek, rus, ingliz, fransuz adabiyoti, hamda zamonaviy san’at, kino va teatrda hamon yashab kelmoqda. Ularni, Shakespearening ko‘plab asarlarida yunon tragediyalaridan ilhom olgan syujetlar mavjudligi, XX–XXI asr g‘arb adabiyotida Prometey, Odissey, Edip kabi arxetip obrazlar qayta ishlanganligi, Gollivud filmlarida yunon mifologiyasi asosida yasalgan syujetlar (masalan, “Troy”, “Percy Jackson” va boshqalar) keng tarqalganligida korish mumkin.

Antik yozma adabiyotlarda ko‘plab maqollar, hikmatli so‘zlar, axloqiy maslahatlar ham mavjud bo‘lib, ular xalq donishmandligining yozma ifodasi, ya`ni, “O‘zini bilgan – donodir” (Sokrat), “Ortacha yo‘l – eng oqillik yo‘ldir” (Aristotel), “Omad jasurlarga yordam beradi” (Vergiliy) hisoblanadi.

Bu kabi fikrlar bugungi kungacha dolzARB bo‘lib, insoniyat tafakkurini boyitishda xizmat qilmoqda.

Antik davr adabiyoti insoniyatning axloqiy, estetik va falsafiy qarashlarini shakllantirishda katta rol o‘ynagan. Bu asarlarda inson va taqdir o‘rtasidagi munosabat,

Xudo va inson qarama-qarshiligi, adolat, fidoyilik, jasorat, axloqiy tozalik kabi qadriyatlar targ‘ib etilgan.

Ayniqsa, yunon tragediyalarida inson taqdiri, irodasi va qadriyatlar dramatik tarzda yoritiladi. Bu jihatlar xalq hayoti va dunyoqarashi bilan bevosita bog‘liq.

Bugungi kunda ham antik adabiyot va folklor unsurlari adabiyot, kino, teatr, musiqada davom etmoqda. Masalan, Shakespeareni ilhomlantirgan yunon tragediyalari, Gollivud filmlaridagi yunon mifologiyasi (masalan, “Troya”, “Herkul”), zamonaviy romanlarda Odissey va Eneidaga havolalar antik merosning abadiy ahamiyatga ega ekanidan dalolat beradi.

Antik davr adabiyoti va folklori insoniyat tafakkuri va madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, yozma va og‘zaki ijodning uyg‘unlashuvi natijasida yuksak san’at namunalari vujudga kelgan. Bugungi adabiyot va madaniyatda bu merosning izlari hanuzgacha yashab kelmoqda. Shu bois, antik adabiyotni chuqur o‘rganish nafaqat tarixiy, balki ma’naviy va estetik jihatdan ham dolzarbdir.

Antik davr adabiyoti va folklori o‘zaro uzviy bog‘liq, bir-birini to‘ldiruvchi ikki asosiy madaniy qatlama hisoblanadi. Yozma adabiyot – xalqning og‘zaki ijodidagi boy merosga tayanib, uni yanada chuqur falsafiy, estetik va badiiy darajada ifodalagan. Bu uyg‘unlik insoniyat tafakkurining eng yuksak cho‘qqilaridan biri hisoblanadi. Shu bois, antik adabiy merosni o‘rganish, uni xalq ijodi bilan bog‘liq holda tahlil qilish – bugungi zamon uchun ham dolzarb ilmiy va ma’naviy vazifadir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O. Ibrohimov. Ezop Masallari (tahrir qilgan va tarjima qilgan:) — Toshkent, “Sharq”, 2015.
2. Vernon Jones. Aesop’s Fables. (translated by) — London: Oxford University Press, 1912.
3. Olivia Temple and Robert Temple. The Complete Fables of Aesop. — Penguin Classics, 1998.
4. N. Karimov. Ezop va uning masallari tarixi — Toshkent, “Fan”, 2001.

5. Folklor va adabiyot: Masallar va ularning funksiyalari — O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2018.
6. L. Ismoilov. Mif va masal: Antik davr adabiyoti. — Toshkent, “Adabiyot va san’at”, 2012.
7. The Fable Tradition in Literature, Cambridge University Press, 2010.
8. Ezop masallari va ularning pedagogik qiymati — O‘zbek adabiyoti va tarixi jurnalı, 2020 yil, №3.